цифровой коммуникации коренным образом обновили формирование, распространение и потребление культурных ценностей. Исследование изучает взаимодействие культурного опыта, нормативных ценностей и информационных потоков через социальные сети. Также в статье анализируется культурная идентичность молодого поколения, глобальное распространение массовой культуры и транснациональные особенности ценностей. Результаты исследования показывают роль цифровой культуры в формировании культурных ценностей в обществе и подчеркивают современные методологические подходы к их изучению.

SUMMARY. In this article, the transformation of cultural values in the context of digital culture is analyzed using the example of social networks. Online platforms and digital communication tools have radically updated the formation, distribution, and consumption of cultural values. The study examines the interaction of cultural experiences, normative values, and information flows through social networks. The article also analyzes the cultural identity of the younger generation, the global spread of mass culture, and the transnational features of values. The research results show the role of digital culture in the formation of cultural values in society and emphasize modern methodological approaches to their study.

MADANIYAT NAZARIYASI VA TARIXIGA NAZAR

Islam Urazbaev – *o‘qituvchi*
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Nukus filiali

Tayanch so‘zlar: madaniyat, tarix, madaniyatshunoslik, inson.
Ключевые слова: культура, история, культурология, человек.
Key words: culture, history, cultural studies, human.

Kirish (Introduction). Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlaming bosh yo‘nalishlardan biri kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan. Ta’lim tizimi o‘quv rejalarida bo'lajak mutaxassislar dunyoqarashini shakllantirishning tarkibiy qismi sifatida talabalarni milliy va umumbashariy madaniyat yutuqlari bilan tanish tirish kokzda tu tilgan. Zero, insoniyatning kelajagi uning madaniyatlilik darajasiga bog'liq bo‘lmoqda.

Madaniyat nazariyasi, tarixi, ya’ni madaniyatshunoslik, madaniyatning mohiyatini, uning shakllanishi, rivojlanishi va tarixiy bosqichlarini o‘rganadigan fan bo‘lib, unda madaniyat tushunchasi, nazariy konsepsiyalar, sivilizatsiya bilan bog‘liqligi va turli davrlardagi madaniy taraqqiyot (ibtidoiy, qadimgi, o‘rta asrlar, uyg‘onish, yangi va hozirgi zamon) tadqiq etiladi. [1]

Madaniyatshunoslik – madaniyat rivojlanishining eng muhim qonunlarini o‘rganadi. Uning manbai insoniyat yaratgan barcha madaniy qadriyatlardir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature reviyew)

Markaziy Osiyoda madaniyat, san’at, ilm-fanning rivojlanishi o‘sha davr olimu mutafakkirlarining ko‘plab asarlarida o‘z aksini topgan. Ayniqsa, bu borada o‘sha davr tarixini o‘rgangan allomalar tadqiqotlari bugungi kun uchun o‘ta zarur. Xususan, Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma" asaridagi tarixiy fakt va dalillar Sohibqiron Amir Temur hayoti va faoliyatiga oid eng ishonchli ma’lumotlar hisoblanadi. XV-XVI asrlardayoq Sharafiddin Ali Yazdiy "Zafarnoma", Abdurazzoq Samarqandiy "Matlai Sa’dayn va majmai bah rayn", Fasih Havofiy "Mujmali Fasihiy", Hotifiy "Temurnoma", Mirxond "Ravzat us-safo", Xondamir "Habib us-suyar" asarlarida bu manbadan keng foydalanganliklari ham shu fikrni to‘la tasdiqlaydi. Buyuk ajdodlarimiz Zahiriddin Muhammad Boburning O‘zbekiston tarixi, madaniyati, san’atidagi o‘rni, ayniqsa, beqiyos hisoblanadi. Uning "Boburnoma" (Memuar), "Risolai harb" (harbiy ishga doir risola), "Devoni Bobur"

(g‘azallar to‘plami), "Mubayyin" (fiqhga oid risola), "Risolai aruz" (she’r tuzilishiga doir risola), "Xatti boburiy" (O‘zbek tili uchun arab alifbosi varianti), «Risolai volidiya» (Xo‘ja Ahrorning falsafiy tasavvufiy asarlarining o‘zbek tiliga tarjimasi), "Risolai Musiqa" (musiqaga oid asar) kabi asarlari o‘zbek milliy madaniyati tarixining durdonalari hisoblanadi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results)

Madaniyatshunoslikning asosiy vazifasiga insonning tabiat jamiyat bilan birgalikda faoliyatini hamda kishilarning ma’naviy turmushiga oid barcha jarayonlarni tadqiq qilish kiradi. Shuning uchun uning tadqiqot manbasi bo‘lib, quyidagi sohalarni o‘z ichiga oladi. Ya’ni: – Inson yaratgan san’at sohasi.
– Kishilarning muomala vositasi bo‘lgan til.
– Jamiyat boyligi va mezon bo‘lmish bilim.
– Jamiyatda sodir bo‘luvchi demografik va etnik jarayonlar xizmat qiladi. Madaniyatshunoslik umumnazariy fan bo‘lib, unga xos bo‘lgan xususiyat-insonning madaniy hayot hodisasini tartib tizimiga solib yondashishi hisoblanadi. Shuningdek madaniyat gumanitar bilimlarni o‘ziga mujassam qilgan holda namoyon bo‘lishi bilan birga bilishning o‘ta murakkab obyekti hamdir. [2]

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations)

«Madaniyat» bu insonlarning ijodiy faoliyat jarayonida yaratgan moddiy va ma’naviy sohalardagi yutuqlar majmui bo‘lib, kundalik tajriba va muomala va munosabatlarning shakllanishi; shuningdek madaniyat ma’lum bir jamiyat uchun xizmat qiluvchi bilimlarning aniq bir darajasi hamdir. Madaniyatni o‘rganishda ob’ektiv qonunlarning va sabab hodisalaridagi bog‘liklik haqidagi an’anaviy bir xil tasvirdan foydalanmaslik ham mumkin. Madaniyatni tartibli tadqiq qilish kutilgan va favqulodda jarayonlar haqidagi tasavvurlardan foydalanishni taqozo qiladi. Sistemali yondashuv bir-biriga ta’sir etuvchi turli madaniyat sohalarining o‘ziga xos xususiyatlarini qismlarga bo‘lib emas, balki madaniyatni butunicha tasavvur qilish imkonini beradi. Sistemali yondashuv tadqiqotning juda ko‘p uslublaridan foydalanishga imkon beradi.

Ya’ni ba’zi bir usullar bilan olingan natijalarni boshqalariga qarama-qarshi qo‘ymasdan muloqotlashtirmasdan xulosa qiladi. Bizning nazarimizda, madaniyat va san’at tarixi, san’atshunoslik va madaniyatshunos lik fanlari bo‘yicha olim mutaxassislarimiz ayrim hollarda isbotlangan narsani yana isbotlashga harakat qilib, yirik, umumilanetar muammolarni hal etishdan biroz chekinganday ko‘rinadi.

Jumladan, hozirgi zamonning global rivojlanishi va madaniyat masalalari, madaniyat va san’atning ijtimoiy taraqqiyot va insoniyat taqdiriga ta’siri, madaniyat rivojlanishining dinamikasidagi global xususiyatlar, madaniyat va mafkura nisbatini aniqlashdagi o‘ziga xosliklar kabi muammolar, bizning nazarimizda, o‘ta dol zarb ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, bugungi kunda tarix, madaniyat na axloq masalalarini o‘rganmasdan yangi zamonga kirish o‘ta qiyin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yangi va zang yangi davr garbiy Yevropa falsafasi. T.: 2002.
2. Falsafa, gomusiy dugat. T: 2004.
3. Askarov A. O‘zbek xalqining kelib chiqish tarixi. T.: 2015.
4. "Xalq so‘zi", 2014, 16 may.
5. Yangi va mangi davr g‘arbiy Yevropa falsafasi. T.: 2002.
6. A. Mavrulov. San’at, madaniyat, tarix: uyg‘unlik, mushtaraklik. 2017-yil.

REZYUME. Respublikamiz mustakilikka erishganidan so‘ng madaniyatshunoslik faniga e’tibor kuchaytirila boshlandi. Bu maqolada madaniyat nazariyasi va tarixi haqida ma’lumot keltirilgan.

РЕЗЮМЕ. После обретения нашей республикой независимости возросло внимание к культурологии. В данной статье представлена информация о теории и истории культуры.

SUMMARY. After the independence of our republic, attention to the subject of cultural studies began to increase. This article provides information about the theory and history of culture.